SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЁРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Bahramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletalieva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybulloev	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi, Kosimova Gulyor Axmatovna	
INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSİYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	



УДК: 35.075.8

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Suyunov Dilmurod Xolmuradovich

i.f.d., prof.

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining
"Biznesni boshqarish va tadbirkorlik (MBA)" kafedrasini mudiri.E-mail: d.suyunov@gsbe.uzORCID: [0009-0003-1897-9966](https://orcid.org/0009-0003-1897-9966)

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy biznes sharoitida korporativ madaniyatning mazmun-mohiyati, uning asosiy elementlari va funksiyalari hamda raqamli iqtisodiyot ta'siridagi transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida korporativ madaniyatning an'anaviy modeldan raqamli, dinamik va insonga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmi o'tishi asoslab berilgan. Shuningdek, korporativ madaniyatning raqamli ekomuhit bilan integratsiyalashuvi tashkilot samaradorligi, xodimlar jalb etilganligi va innovatsion rivojlanishga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Muallif tomonidan korporativ madaniyatning transformatsion modeli ishlab chiqilib, uning zamonaviy biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: korporativ madaniyat, raqamli iqtisodiyot, korporativ madaniyat transformatsiyasi, raqamli ekomuhit, inson kapitali, jalb etilganlik, boshqaruv samaradorligi, innovatsiya.

Abstract. This article examines the essence and content of corporate culture, its key elements and functions, as well as transformation processes in the context of the digital economy. The study substantiates the transition of corporate culture from a traditional static model to a dynamic, digital, and human-centered management system. Particular attention is paid to the role of the digital ecosystem as a key element of corporate culture influencing organizational performance, employee engagement, and innovation development. The author proposes a transformational model of corporate culture and highlights its significance in the development of modern business.

Key words: corporate culture, digital economy, corporate culture transformation, digital ecosystem, human capital, engagement, management efficiency, innovation.

Аннотация. В статье исследуются сущность и содержание корпоративной культуры, её основные элементы и функции, а также процессы трансформации в условиях цифровой экономики. Обоснован переход корпоративной культуры от традиционной статической модели к динамичной, цифровой и ориентированной на человека системе управления. Особое внимание уделено роли цифровой экосреды как ключевого элемента корпоративной культуры, влияющего на эффективность деятельности организации, вовлечённость сотрудников и инновационное развитие. Автором предложена трансформационная модель корпоративной культуры, и раскрыто её значение в развитии современного бизнеса.

Ключевые слова: корпоративная культура, цифровая экономика, трансформация корпоративной культуры, цифровая экосреда, человеческий капитал, вовлечённость, эффективность управления, инновации.

KIRISH

Globalashuv, raqamli transformatsiya va mehnat munosabatlarning yangi bosqichga o'tishi sharoitida tashkilotlar muvaffaqiyati nafaqat moliyaviy, texnologik yoki moddiy resurslarga, balki ularning ichki institutsional muhiti, boshqaruv uslubi hamda korporativ madaniyatining biznes strategiyasiga qanchalik muvofiqligiga ham bevosita bog'liq. Zamonaviy biznes sharoitida korporativ madaniyat tashkilotning ichki yaxlitligini ta'minlaydigan, xodimlarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiradigan, qarorlar qabul qilish hamda xulq-atvor me'yorlarini tartibga soladigan muhim omil sifatida namoyan bo'lmoqda.



Deloitte — xalqaro audit, konsalting va tadqiqot xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniya tomonidan 2024-yilda 95 mamlakatda 14 mingdan ortiq rahbarlar, HR-menejerlar va xodimlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma hamda ekspert baholari natijalariga ko'ra, zamonaviy biznes muhitida ishonchni mustahkamlash, inson kapitali salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda sog'lom tashkiliy muhitni qaror toptirish tashkilotlarning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etilgan [1].

Inson kapitali va mehnat munosabatlarini tahlil qilishga ixtisoslashgan Gallup xalqaro analitik kompaniyasi tadqiqotlari natijalari zamonaviy tashkilotlarda xodimlarning umumiy maqsadlarga jalb etilganlik darajasini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, jahon miqyosida xodimlarning 21 foizi kompaniyalar faoliyatiga yuqori darajada jalb etilgan bo'lib, qolgan qismi esa jalb etilganlik darajasini oshirish uchun muayyan salohiyatga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu holat global iqtisodiyot miqyosida taxminan 438 mlrd AQSh dollari miqdorida qo'shimcha mahsuldorlik zaxiralari mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotlarda jamoaviy jalb etilganlik darajasining qariyb 70 foizi rahbarlik sifatiga bog'liqligi aniqlangan bo'lib, bu korporativ madaniyat va liderlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi. Eng muhimi, yuqori jalb etilganlik darajasiga ega jamoalarda kadrlar qo'nimsizligining 21–51 foizgacha kamayishi kuzatilgan. Bu esa korporativ madaniyatni xodimlarni saqlab qolish va tashkilot barqarorligini ta'minlashning muhim institutsional omili sifatida baholash imkonini beradi [2].

So'nggi yillarda korporativ madaniyatga bo'lgan qiziqishning ortishi uning raqamli transformatsiya, mehnat bozorida kadrlar uchun raqobatning kuchayishi, ish joyidagi motivatsiya mexanizmlarining takomillashuvi hamda brendning ichki va tashqi imidjiga ta'siri bilan izohlanadi. Ayniqsa, inson kapitaliga asoslangan zamonaviy biznes modellarida korporativ madaniyat tashkilotning strategik barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi asosiy nomoddiy aktivlardan biriga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ madaniyat tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinib, uning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab yondashuvlar shakllangan. Xorijiy tadqiqotchilardan Edgar Schein korporativ madaniyatni tashkilot a'zolari tomonidan tashqi muhitga moslashish va ichki integratsiya muammolarini hal qilish jarayonida shakllangan asosiy qadriyatlar, e'tiqodlar va tasavvurlar tizimi sifatida izohlaydi. Ushbu qadriyatlar keyinchalik yangi a'zolarga "to'g'ri fikrlash va harakat qilish usuli" sifatida o'rgatiladi [3].

Geert Hofstede esa korporativ madaniyatni tashkilot a'zolariga xos bo'lgan "jamoaviy ong dasturlanishi" sifatida talqin qilib, uni umumiy qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor standartlari orqali namoyon bo'ladigan tizim deb hisoblaydi [4].

Hill va Jones ta'rifida korporativ madaniyat tashkilotdagi guruhlar va shaxslar tomonidan qabul qilingan qadriyatlar va normalar yig'indisi bo'lib, ularning o'zaro hamkorligi va tashqi muhit bilan munosabatlarini tartibga soluvchi mexanizm sifatida qaraladi [5].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda korporativ madaniyat kompaniyaning nomoddiy muhiti sifatida izohlanib, u xodimlarning xulq-atvori va munosabatlariga ta'sir etuvchi umumiy qadriyatlar hamda normalar majmuasi ekani ta'kidlanadi [6].

Xorijiy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, korporativ madaniyat tashkilotning "ichki qoidalar maydoni" bo'lib, u qaror qabul qilish, o'zaro munosabatlar va strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydigan institutsional muhit sifatida qaraladi [7].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham ushbu tushuncha chuqur tahlil qilingan. Masalan, A.V. Dronov korporativ madaniyatni personalni boshqarish tizimining muhim elementi sifatida baholab, uni xodimlarning mehnat faoliyati, motivatsiyasi va tashkilotga munosabatini shakllantiruvchi omil deb hisoblaydi [8]. Yu.A. Grigoreva esa korporativ madaniyatni tashkilot faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida izohlaydi [9]. Shu bilan birga, T.Yu. Kaloshina va Yu.V. Belskaya korporativ madaniyatni HR-menejmentning asosiy instrumenti sifatida ko'rib, uni xodimlar qadriyatlari va tashkilot maqsadlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi tizim sifatida baholaydilar [10].

MDH tadqiqotchilari orasida korporativ madaniyat transformatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, A.V. Popov va O.M. Shevchenko [11] uni zamonaviy boshqaruv tizimidagi muhim tendensiya sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, korporativ madaniyat raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zgarib, innovatsion muhit va tezkor qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmga aylanmoqda. Shuningdek, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi tadqiqotlarda korporativ madaniyat nomoddiy motivatsiya va kadrlarni ushlab qolishning muhim omili sifatida talqin qilinadi.

O'zbekistonlik olimlar qarashlarida [12–15] esa korporativ madaniyat ko'proq milliy iqtisodiyot va tashkilotlar boshqaruvi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda korporativ madaniyat korxonadagi ijtimoiy munosabatlar tizimi, korporativ qadriyatlar, etika va ish uslubi orqali xodimlar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi omil sifatida qaraladi. Ayrim olimlar uni tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi hamda inson



kapitali samaradorligini oshiruvchi strategik resurs sifatida baholaydilar. Shuningdek, korporativ madaniyatni milliy qadriyatlar, mentalitet va boshqaruv an'analari bilan uyg'un holda shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, korporativ madaniyatning biznesdagi o'rnini tadqiq etish uchta asosiy yo'nalishda rivojlangan:

1. Korporativ madaniyatning biznes samaradorligiga ta'siri. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda korporativ madaniyat tashkilotning iqtisodiy natijalari, mahsuldorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida qaraladi. Xususan, O'Reilly va hammualliflar korporativ madaniyatning turli arxetiplari (natijaga, insonga va innovatsiyaga yo'naltirilganlik) kompaniya samaradorligi bilan bevosita bog'liqligini empirik tahlil asosida asoslab bergan [16]. Shuningdek, Chatman va Caldwell korporativ madaniyatning tashkilot strategiyasiga mosligi uning natijadorligini belgilashini ta'kidlaydi [17]. MDH olimlaridan Yu.A. Grigoreva korporativ madaniyatni tashkilot faoliyati samaradorligini oshiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida baholaydi [18].

2. Korporativ madaniyatning HR-menejment va motivatsiyadagi roli. Ushbu yo'nalishda korporativ madaniyat xodimlarni jalb etish, ularni saqlab qolish, motivatsiyalash hamda loyallikni shakllantirish vositasi sifatida tadqiq etiladi [2]. T.Yu. Kaloshina va Yu.V. Belskaya korporativ madaniyatni HR-menejmentning asosiy instrumenti sifatida baholab, uni xodimlar qadriyatlarini va tashkilot maqsadlarini uyg'unlashtiruvchi mexanizm sifatida izohlaydi [10]. A.S. Vorobev va D.Yu. Burlovlar korporativ madaniyatni nomoddiy motivatsiyaning strategik vositasi sifatida ko'rib, uning xodimlar samaradorligiga ijobiy ta'sirini asoslab bergan [18]. Shuningdek, ayrim mualliflar IT-kompaniyalarda korporativ madaniyatni kadrlarni ushlab qolishning muhim instrumenti sifatida baholaydilar [19].

3. Korporativ madaniyatning raqamli transformatsiya va innovatsiyalardagi roli. Ushbu yo'nalishda korporativ madaniyat raqamli iqtisodiyot va innovatsion muhit sharoitida tadqiq qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ madaniyat tashkilotni samarali boshqarishning muhim institutsional vositasiga aylanmoqda. U nafaqat boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish, balki raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish samaradorligini ta'minlashda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, korporativ madaniyatning transformatsiyasi zamonaviy boshqaruv tizimlaridagi ustuvor tendensiyalardan biri bo'lib, u tashkilotlarning innovatsion rivojlanish salohiyati va o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligini belgilaydi. Ayniqsa, insonga yo'naltirilgan korporativ muhitni shakllantirish innovatsion faollikni rag'batlantirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishning muhim sharti sifatida baholanadi [1, 2, 11, 21, 22].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi:

- tizimli tahlil usuli: boshqaruv etikasining tarkibiy elementlari va ularning tashkilot faoliyati bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi;
- qiyosiy tahlil usuli: turli kompaniyalar va formatlarda korporativ etika hamda axloqiy boshqaruv mexanizmlari, boshqaruv etikasi amaliyotidagi umumiy tendensiyalar aniqlandi;
- ilmiy adabiyotlar tahlili: boshqaruv etikasi, korporativ madaniyat va ijtimoiy mas'uliyatga oid ilmiy ishlar tahlil qilindi;
- mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari orqali boshqaruv etikasining funksiyalari va tamoyillari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ madaniyatning an'anaviy mazmuni tubdan transformatsiyaga uchrab, u tashkilot ichidagi ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimidan kengroq bo'lgan, raqamli texnologiyalar, virtual kommunikatsiya, masofaviy mehnat shakllari hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlari bilan uzviy bog'liq kompleks institutsional muhitga aylanmoqda. Bunday sharoitda korporativ madaniyat jamoalarning raqamli platformalar orqali o'zaro hamkorligiga asoslangan virtuallashuv, axborot almashinuvining tezligi va shaffofligi orqali ishonch muhitini shakllantirish, o'zgaruvchan muhitga tez moslashishni ta'minlovchi moslashuvchanlik (agility), qarorlarni analitik ma'lumotlar asosida qabul qilishga yo'naltirilgan data-driven yondashuv hamda xodimlarning raqamli kompetensiyalarini ustuvor qadriyat sifatida shakllantirish kabi jihatlar bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar korporativ madaniyat raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish samaradorligini belgilashda muhim omil ekanini, uning transformatsiyasi esa zamonaviy boshqaruv tizimlaridagi ustuvor tendensiyalardan biri sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, insonga yo'naltirilgan korporativ muhitni shakllantirish tashkilotlarning innovatsion rivojlanish qobiliyati, raqobatbardoshligi va strategik barqarorligini ta'minlashning asosiy sharti sifatida baholanadi.



Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ madaniyatni — tashkilotda shakllangan qadriyatlar, normalar va xulq-atvor modellarining raqamli texnologiyalar hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv jarayonlari bilan integratsiyasi natijasida yuzaga keluvchi, xodimlarning faol ishtirokini, innovatsion fikrlashini hamda strategik maqsadlarga yo'naltirilgan harakatini ta'minlovchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional tizim sifatida talqin etish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ madaniyatning transformatsiyasi uning funksiyalarini anglash va amalga oshirishga nisbatan yondashuvlarni ham tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy sharoitda korporativ madaniyat asosan tartibga soluvchi, integratsiyalovchi va nazorat funksiyalarini bajargan bo'lsa, raqamli muhitda uning asosiy vazifasi tashkilotning moslashuvchanligi, innovatsion faolligi hamda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ta'minlashga qaratilmoqda.

Xususan, axborot oqimlarining tezlashishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi korporativ madaniyatning axborot va aloqa funksiyalarini strategik darajaga olib chiqdi. Natijada u faqat ichki munosabatlarni tartibga soluvchi omil sifatida emas, balki bilimlar almashinuvi va kollaboratsiyani rag'batlantiruvchi samarali mexanizmga aylanmoqda.

Shu bilan birga, korporativ madaniyat funksiyalariga nisbatan yondashuvlarda insonga yo'naltirilganlik hamda raqamli kompetensiyalarni integratsiya qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Agar ilgari korporativ madaniyat xodimlarni tashkilotga moslashtirish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi sharoitda u xodimlarni rivojlantirish, ularning innovatsion salohiyatini ochish va o'zgarishlarga tayyorligini shakllantirishga xizmat qiluvchi dinamik tizimga aylanmoqda. Bu esa korporativ madaniyatni boshqarishda qat'iy qoidalarga asoslangan yondashuvdan ko'ra moslashuvchan, ishtirokchilikka asoslangan hamda ma'lumotlarga tayangan (data-driven) boshqaruv modellarini qo'llash zarurligini taqozo etadi. Natijada korporativ madaniyat funksiyalari statik emas, balki tashkilotning raqamli transformatsiya darajasiga bog'liq ravishda o'zgaruvchan va evolyutsion xususiyat kasb etmoqda.

1. Korxonada imijini oshirish. Iste'molchilar, hamkorlar va xodimlar oldida kompaniyaning ijobiy imiji shakllanadi. Kompaniya haqida so'z borganda, odamlar tasavvurida uning brendi namoyon bo'ladi. Bu esa kompaniyaning ijobiy obrazini yaratishga, raqobat ustunliklariga erishishga hamda mijozlar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishda ustunlikka ega bo'lishga xizmat qiladi. Korporativ madaniyatning ushbu funksiyasi natijasida potensial iste'molchilar ko'pincha mahsulot bilan tanishishdan oldin kompaniya haqida ijobiy tasavvurga ega bo'ladi.

2. Xodimlarning motivatsiyasini oshirish. Moddiy va nomoddiy rag'batlantirish vositalari tashkilot jamoasini yuqori natijalarga erishishga undaydi. Natijada mehnat unumdorligi, xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va umumiy samaradorligi ortadi.

3. Boshqaruv samaradorligini oshirish. Korporativ normalar va qoidalar xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi, nostandart vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish hamda biznes jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada tashkilot faoliyatini prognozlash aniqligi oshadi va xatolar ehtimoli kamayadi.

4. Yangi xodimlarning moslashuvini tezlashtirish. Aniq va shaffof talablar tufayli yangi xodimlar o'z vazifalari, vakolatlari va mas'uliyatlarini tezda anglaydilar hamda jamoaga tez moslashadilar.

5. Kompaniyaning bozorda o'z o'rnini mustahkamlashi. Mijozlarga xizmat ko'rsatish qadriyatlarini va standartlari tijorat natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda maqsadli auditoriyaga mos yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Korporativ madaniyat quyidagi funksiyalari orqali qo'yilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishni ta'minlaydi:

- axborot funksiyasi (ijtimoiy-madaniy tajribani yetkazish);
- bilish va anglash funksiyasi (xodimni moslashish bosqichida jamoa hayotiga kiritish);
- baholash-normativ funksiyasi (tashkilotda umumiy qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini shakllantirish);
- tartibga soluvchi funksiya (shaxs yoki guruh xatti-harakatlarini tashkilotda o'rnatilgan me'yorlar bilan muvofiqlashtirish);
- qadriyatlarini shakllantirish funksiyasi (inson dunyoqarashi va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatish);
- aloqa funksiyasi (xodimlar o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni ta'minlash);
- xavfsizlik funksiyasi (tashkilotni begona madaniy ta'sirlardan himoya qilish);
- integratsiya funksiyasi (jamoaning yagona tizim sifatida shakllanishini ta'minlash);
- motivatsiya funksiyasi (tashkilot faoliyatida ishtirok etishga rag'batlantirish);
- ta'lim va rivojlantirish funksiyasi (qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish);
- imijni shakllantirish funksiyasi (tashkilotning ijobiy imijini yaratish).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa mazkur funksiyalarning mazmuni va amalga oshirish mexanizmlari tubdan o'zgarib bormoqda. Xususan, korporativ madaniyat orqali kompaniya imijini shakllantirish raqamli platformalar va onlayn reputatsiya vositalari orqali amalga oshirilmoqda, motivatsiya jarayonlari esa individuallashtirilgan



hamda nomoddiy rag'batlantirishga yo'naltirilmoqda. Boshqaruv samaradorligi data-driven yondashuvlar asosida ta'minlanib, qaror qabul qilish jarayonlari tezlashmoqda. Shu bilan birga, xodimlarni moslashtirish, bilim berish va integratsiya qilish jarayonlari raqamli ta'lim platformalari orqali amalga oshirilmoqda. Natijada korporativ madaniyat innovatsion faollikni rag'batlantiruvchi, ochiq kommunikatsiyani ta'minlovchi va strategik rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi dinamik tizimga aylanmoqda.

Demak, korporativ madaniyat funksiyalari an'anaviy tartibga soluvchi mexanizmdan raqamli transformatsiyani ta'minlovchi strategik drayverga aylanmoqda (1-jadval).

1-jadval. Korporativ madaniyat funksiyalarini amalga oshirishda an'anaviy va raqamli yondashuvlar¹

№	Funksiya	An'anaviy yondashuv	Raqamli yondashuv
1	Imijni shakllantirish	Ommaviy axborot vositalari, an'anaviy reklama va jamoatchilik bilan aloqalar orqali imij yaratish	Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar va raqamli kanallar orqali kompaniya haqida ijobiy fikr shakllantirish
2	Motivatsiya	Asosan ish haqi, mukofot va moddiy rag'batlantirish	Shaxsiy rivojlanish, ma'naviy rag'bat, masofaviy imkoniyatlar va ishdan qoniqishni oshirishga qaratilgan yondashuv
3	Boshqaruv samaradorligi	Qat'iy qoidalar va markazlashgan boshqaruv orqali nazorat	Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va tezkor, moslashuvchan boshqaruv
4	Xodimlarni moslashtirish	An'anaviy o'quv jarayonlari va tajribali xodimlar yordamida moslashtirish	Raqamli o'quv platformalari va masofaviy dasturlar orqali tezkor moslashtirish
5	Bozor pozitsiyasi	Mahsulot sifati va an'anaviy reklama asosida bozorda o'rin egallash	Mijozlar bilan raqamli aloqa, xizmat ko'rsatish sifati va elektron muhitdagi faollik orqali ustunlikka erishish
6	Axborot funksiyasi	Axborotni bosqichma-bosqich yetkazish	Axborotni real vaqtda tezkor hamda ochiq yetkazish
7	Bilish va anglash funksiyasi	Xodimlarni asta-sekin moslashtirish	Interaktiv va tezkor raqamli ta'lim orqali bilim berish
8	Normativ funksiya	Yozma qoidalar va ichki nizomlar orqali tartibga solish	Qoidalarni raqamli tizimlarda aks ettirish va avtomatik nazorat qilish
9	Tartibga solish funksiyasi	Nazorat va intizomga asoslangan boshqaruv	O'z-o'zini boshqarish va natijalarni tahlil qilish orqali tartibga solish
10	Qadriyatlarini shakllantirish funksiyasi	An'analar va korporativ muhit orqali shakllantirish	Innovatsiya va raqamli fikrlashni qo'llab-quvvatlash orqali shakllantirish
11	Aloqa funksiyasi	Vertikal va rasmiy muloqot	Gorizontal va tezkor raqamli muloqot
12	Xavfsizlik funksiyasi	Ichki qoidalar orqali xavfsizlikni ta'minlash	Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilishga yo'naltirilgan yondashuv
13	Integratsiya funksiyasi	Jamoaviy tadbirlar orqali birlashtirish	Masofaviy jamoalar va raqamli hamkorlik vositalari orqali birlashtirish
14	Motivatsiya (keng ma'noda)	Jamoaviy rag'batlantirish	Shaxsiy ishtirok va natijalarga asoslangan rag'batlantirish
15	Ta'lim va rivojlanish funksiyasi	An'anaviy o'quv kurslari	Doimiy onlayn ta'lim va malaka oshirish

Korporativ madaniyatning mazmun-mohiyati uning asosiy elementlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu elementlarga jamoa (komanda), tashkilot missiyasi, korporativ qadriyatlar, rivojlanish strategiyasi, liderlik tizimi, ichki kommunikatsiya, korporativ etika, rag'batlantirish mexanizmlari, korporativ ramzlar (logotip, shior va boshqalar), shuningdek, xodimlarning o'zaro munosabatlari va xulq-atvor normalari kiradi.


Zamonaviy sharoitda ushbu elementlar qatoriga yana bir muhim tarkibiy qism — raqamli ekomuhit ham qo'shilmoqda. Raqamli ekomuhit korporativ madaniyatning ajralmas elementi sifatida tashkilotda axborot almashinuvi, masofaviy hamkorlik, bilimlar tarqalishi va qaror qabul qilish jarayonlarini ta'minlovchi platformalar, raqamli instrumentlar hamda texnologik infratuzilmalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Shu jihatdan, korporativ madaniyat endilikda faqat ijtimoiy munosabatlar tizimi emas, balki inson omili va raqamli texnologiyalar uyg'unligida shakllanuvchi kompleks institutsional muhit sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur holat korporativ madaniyat funksiyalarini amalga oshirishga nisbatan yondashuvlarning ham tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot ta'sirida korporativ madaniyat funksiyalari an'anaviy, statik va qat'iy reglamentlashgan modeldan dinamik, moslashuvchan hamda texnologiyalarga integratsiyalashgan modelga o'tmoqda (1-rasm).

1 Muallif ishlanmasi.

CORPORATE CULTURE TRANSFORMATION MODEL



1-rasm. Korporativ madaniyatning transformatsion modeli va uning elementlari²

Endilikda korporativ madaniyat axborotni uzatish yoki tartibga solish bilan cheklanib qolmasdan, innovatsiyalarni rag'batlantirish, bilimlar almashinuvini tezlashtirish, xodimlarning faol ishtirokini ta'minlash hamda insonga yo'naltirilgan boshqaruvni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli ekomuhit orqali korporativ qadriyatlarning amalda ro'yobga chiqishi, kommunikatsiyaning ochiqligi va qaror qabul qilishning shaffoligi ta'minlanib, korporativ madaniyat tashkilotning strategik rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy drayverga aylanmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, zamonaviy korporativ madaniyatni an'anaviy tartibga soluvchi tizimdan raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan, dinamik va insonga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmiga o'tish jarayonini ifodalovchi konseptual yondashuv sifatida talqin etish mumkin (1-rasm). Ushbu model korporativ madaniyat elementlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqligini, ayniqsa raqamli ekomuhitning markaziy rolini ochib berish orqali tashkilotlarda innovatsion faollikni rag'batlantirish, xodimlarning jalb etilganligini oshirish hamda strategik maqsadlarga erishish samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, model korporativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tizimli tashkil etish, an'anaviy yondashuvdan raqamli va moslashuvchan modelga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmlarini asoslash hamda tashkilot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy biznesni rivojlantirishda mazkur modelning o'rni shundaki, u korporativ madaniyatni tashkilotning strategik resurslaridan biri sifatida shakllantirish orqali inson kapitali, raqamli texnologiyalar va boshqaruv jarayonlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Model asosida tashkilotlar ichki muhitni barqarorlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion faollikni rag'batlantirish, xodimlarning jalb etilganligini oshirish hamda tez o'zgaruvchi bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatini kuchaytirishga erishadi.

Shuningdek, korporativ madaniyatning raqamli ekomuhit bilan integratsiyalashuvi biznes jarayonlarining shaffoligi va samaradorligini ta'minlab, qaror qabul qilish tezligini oshiradi hamda kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Natijada mazkur model zamonaviy biznesda barqaror rivojlanish, yuqori mahsuldorlik va innovatsion ustunlikka erishishning muhim konseptual asosi sifatida xizmat qiladi.

² Muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ madaniyat tashkilotning muhim nomoddiy resursiga aylanib, uning biznes samaradorligi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu holat korporativ madaniyatni faqat ichki ijtimoiy muhit sifatida emas, balki boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiya ta'sirida korporativ madaniyat funksiyalari an'anaviy, statik va reglamentlashgan modeldan dinamik, moslashuvchan hamda texnologiyalarga integratsiyalashgan modelga o'tmoqda. Bu esa tashkilotlarda innovatsion faollikni kuchaytirish, tezkor qaror qabul qilishni ta'minlash va xodimlarning jalb etilganligini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ madaniyat elementlari tarkibiga raqamli ekomuhitning kirib kelishi uning mazmunini kengaytirib, inson kapitali va raqamli texnologiyalar uyg'unligi asosida shakllanuvchi kompleks institutsional tizimga aylantirmoqda. Natijada u biznesni rivojlantirishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tashkilotlarda korporativ madaniyatni rivojlantirishda raqamli ekomuhitni asosiy element sifatida joriy etish, xususan, korporativ portallar, bilimlar bazasi va ichki raqamli kommunikatsiya platformalarini takomillashtirish zarur.

Xodimlarning jalb etilganligini oshirish maqsadida korporativ madaniyatni insonga yo'naltirilgan yondashuv asosida qayta shakllantirish, ya'ni nomoddiy rag'batlantirish, shaxsiy rivojlanish va ishtirokchilik mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Korporativ madaniyatni boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan (analitik) yondashuvlarni joriy etish, jumladan, xodimlar faolligi, qoniqishi va samaradorligini muntazam baholash tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Korporativ madaniyatni tashkilot strategiyasi bilan uyg'unlashtirish orqali uni raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlarining asosiy institutsional vositasiga aylantirish, shu orqali biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Deloitte. 2024 Global Human Capital Trends: Thriving Beyond Boundaries: Human Performance in a Boundaryless World. – New York: Deloitte Insights, 2024. – 120 p.
2. Gallup. State of the Global Workplace: 2025 Report. – Washington, DC: Gallup Press, 2025. – 200 p.
3. Schein E.H. Organizational Culture and Leadership. – 5th ed. – Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2017. – 432 p.
4. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – 2nd ed. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2001. – 596 p.
5. Hill C.W.L., Jones G.R. Strategic Management Theory: An Integrated Approach. – 12th ed. – Boston: Cengage Learning, 2013. – 480 p.
6. Gutiérrez A. What is corporate culture? // edX. – 2023. – URL: <https://www.edx.org/resources/what-is-corporate-culture>
7. Organizational culture // Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Organizational_culture
8. Дронов А.В. Корпоративная культура в управлении персоналом организации // Региональные проблемы преобразования экономики. – 2024. – № 6(164). – С. 154–163.
9. Григорьева Ю.А. К вопросу о взаимосвязи корпоративной культуры и деятельности организации // Лидерство и менеджмент. – 2023. – Т. 10. – № 4. – С. 1255–1270.
10. Калошина Т.Ю., Бельская Ю.В. Ценностные ориентиры корпоративной культуры как инструмент HR-менеджмента // Лидерство и менеджмент. – 2023. – Т. 10. – № 1. – С. 139–150.
11. Попов А.В., Шевченко О.М. Тенденции трансформации корпоративной культуры // Гуманитарий Юга России. – 2025. – Т. 14. – № 4. – С. 126–144.
12. Suyunov D.X., Qodirov T.U., Umarova R.Z. Boshqaruv etikasi va korporativ madaniyat. – T.: Impress Media, 2025. – 560 b.
13. Suyunov D.X., Qodirov T.U. Korporativ madaniyat, axloqiy-ruhiy va ma'naviy muhitning inson kapitalidan samarali foydalanishdagi o'rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026. – № 3. – B. 407–415.
14. Xamidulin M.B. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv. – T.: Akademiya, 2007. – 224 b.
15. Muminova E.A. Korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish yo'nalishlari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2020. – № 4(136). – B. 170–175.
16. O'Reilly C.A., Chatman J.A., Caldwell D.F. Organizational culture and firm performance // Journal of Business Research. – 2024. – Vol. 168. – P. 114–126.
17. Chatman J.A., Caldwell D.F. Cultural fit and organizational performance // Academy of Management Review. – 2023. – Vol. 48. – No. 2. – P. 245–267.
18. Григорьева Ю.А. Корпоративная культура и эффективность деятельности организации // Лидерство и менеджмент. – 2023. – Т. 10. – № 4. – С. 1255–1270.
19. Воробьев А.С., Бурлов Д.Ю. Корпоративная культура как инструмент мотивации // Лидерство и менеджмент. – 2025. – Т. 12. – № 6. – С. 1453–1468.
20. Журавлева А.А. и др. Корпоративная культура в IT-компаниях // Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами. – 2025. – Т. 14. – № 1. – С. 80–86.



21. Yevtushenko N. et al. Organisational culture and telecom management // Baltic Journal of Economic Studies. – 2024. – Vol. 10. – No. 2. – P. 103–112.
22. Microsoft, LinkedIn. Work Trend Index Report. – 2024.
23. Suyunov D.X., Maxsudov M. The role of energy in the economic development of Uzbekistan // Science and Innovation. – 2022. – Vol. 1, No. A4. – P. 145–149.
24. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. Korporativ boshqaruv. – 2021. – 356 b.
25. Suyunov D.X., Kenjabayev A.T., Ro'ziyev A.O. Elektron tijorat. Darslik. – 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
